

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

S.K.QOSIMOVA

**“MULK, QIYMAT VA NARXNING NAZARIY ASOSLARI”
FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR O'TKAZISH
BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**



**Oliy ta'limning 5231500- “Baholash ishi” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
ta'lim oluvchi talabalar uchun**

TOSHKENT - 2017

“Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” fanidan amaliy mashg’ulot uchun uslubiy qo’llanma. Qosimova. S.K - T.: Toshkent moliya instituti, 2017 yil. 61 bet.

Ushbu uslubiy qo’llanma bakalaviaturaning 5231500 - “Baholash ishi” mutaxassisligi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda “Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” fanidan amaliy mashg’ulot uchun tayyorlanish va bajarish tartibi belgilab berilgan.

Taqrizchilar:

N.S.Ismailova – TDIU, “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

L.S.Zoyirov – TMI, “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.

Uslubiy qo’llanma Toshkent moliya instituti “Baholash ishi va investitsiyalar” kafedra (2017 yil -sonli) majlisida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun institut o’quv-uslubiy Kengashiga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

L.Zoyirov

Uslubiy qo’llanma institut o’quv-uslubiy Kengashining 2017 yil _____dagi _____-sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Kengash raisi

I.Qo’ziyev

KIRISH

Hozirda barcha mamlakatlar, jumladan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fuqarolik huquqlari obyektlarining har qanday turi, ularning qiymati, narxi, qimmati kategoriyalari, ularni mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori, undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy g'oyalar, nazariy qarash va konsepsiyalar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlar mazmun mohiyatini chuqur bilgan va amaliyotda qo'llay oluvchi mutaxassislarni tayyorlash alohida rol o'ynagani sababli 5231500-“Baholash ishi” ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan “Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” nomli fanini o'rganib o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, zamon talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”i, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarining qabul qilinishi muhim o'rin tutadi. Mazkur hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini takomillashtirish, yuqori malakali, yuksak kasbiy, ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini yaratish ko'zda tutilgan.

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Ta'lim dasturini o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolari amaliy mashg'ulot orqali o'rganilishi lozim.

Amaliy mashg'ulot talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallarini mustaqil o'zlashtirilishidir. Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda talabalarning topshiriqlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bakalavrning “Baholash ishi” mutaxassisligi talabalari asosiy mutaxassislik fanlarini chuqur o’zlashtirish, mulk, qiymat va narxning nazariy asoslariga doir bilim, malaka va ko’nikmalarni egallashlarida amaliy mashg’ulotishlariga tayyorgarlik ko’radi va mavzularni o’zlashtiradilar. Amaliy mashg’ulot muayyan fan bo’yicha talabaning o’zlashtirish darajasini belgilabgina qolmasdan, balki, ushbu fan bo’yicha egallangan bilimni yuzaga chiqarishning muhim vositasi hisoblanadi. Bakalavr talabasining amaliy mashg’uloti o’quv rejasida muayyan fanni o’zlashtirish uchun belgilangan o’quv ishlarining ajralmas qismi bo’lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta’minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Amaliy mashg’ulotning asosiy maqsadi o’qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o’quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Amaliy mashg’ulotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kerakli ma’lumotlarni izlab topish;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an’anaviy o’quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o’quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;
- internet tarmog’idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqning ratsional yechimini belgilash;
- ma’lumotlar bazasini tahlil etish;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- to’plangan ma’lumotni tahlil qilingan holda, o’z tushunchasiga ega bo’lib, o’z g’oyasini asoslash.

FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

“Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” fanining asosiy maqsadi - talabalarda fuqarolik huquqlari obyektlarining har qanday turi, ularning qiymati,

narxi, qimmat kategoriyalari, ularni mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori (MQNB), undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy g'oyalar, nazariy qarash va kontseptsiyalar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlar bo'yicha tizimlashtirilgan zaruriy bilim, amaliy ko'nikma va malaka asoslarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga baholash faoliyatining fundamental asoslari bo'lmish mulk, mulkiy huquqlar, qiymat, narx, qimmat kategoriyalari, ularni mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori (MQNB), undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy g'oyalar, nazariy qarash va kontseptsiyalar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlar haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

“Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” nomli fan baholash va rieltorlik faoliyatlarining nazariy va metodologik bazisini tashkil etuvchi tayanch ixtisoslik fani hisoblanadi.

FAN BO‘YICHA TALABALARNING TASAVVUR, BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Mazkur fan bo'yicha bakalavr:

- mulk, mulkiy huquqlar, qiymat, narx, qimmat kategoriyalari, mulk, mulkiy huquqlar, qiymat, narx, qimmat kategoriyalarini mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, mulk, mulkiy huquqlar, qiymat, narx, qimmat kategoriyalarini boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion

munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori (MQNB), undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy g'oyalar, nazariy qarash va kontsepsiyalar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlar haqida **tasavvurga** ega bo'lishi;

– fuqarolik huquqlari obyektlarining har qanday turi, ularning qiymati, narxi, qimmatlari kategoriyalari, ularni mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya va “ne'mat-fantom-mulkdor” triadasi g'oyasiga asoslangan zamonaviy mulk to'g'risidagi multifanga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori, undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy qarash va nazariy kontsepsiyalar, modellar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlar bo'yicha tizimlashtirilgan bilimlarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

– fuqarolik huquqlari obyektlarining har qanday turi, ularning qiymati, narxi, qimmatlari kategoriyalari, ularni mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya va “ne'mat-fantom-mulkdor” triadasi g'oyasiga asoslangan zamonaviy mulk to'g'risidagi multifanga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori, undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy qarash va nazariy kontsepsiyalar, modellar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlarni amaliy qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;

– fuqarolik huquqlari obyektlarining har qanday turi, ularning qiymati, narxi, qimmatlari kategoriyalari, ularni mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya va “ne'mat-fantom-mulkdor” triadasi g'oyasiga asoslangan zamonaviy mulk to'g'risidagi multifanga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori, undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy qarash va

nazariy konsepsiyalar, modellar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlarni amaliy faoliyatida nazariy asoslangan holda tanlay olish va ularni qo'llash negizida soha masalari echimiga erishish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

FANNING O'QUV REJADAGI BOSHQA FANLAR BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI VA USLUBIY JIHATDAN UZVIYLIGI

Mazkur fanni o'rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan quyidagi iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada bo'ladi: Iqtisodiyot nazariyasi, Mulk qiymatini baholashning huquqiy-me'yoriy asoslari, Moliya, Buhgalteriya hisobi, Statistika, Mikroiqtisodiyot, Makroiqtisodiyot va boshqa ixtisoslik fanlari.

FANNING ILM-FAN VA ISHLAB CHIQARISHDAGI O'RNI

“Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” fani talabalarda fuqarolik huquqlari obyektlarining har qanday turi, ularning qiymati, narxi, qimmati kategoriyalari, ularni mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, mulk shakllari va tizimiga, mulkiy ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlarga, mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori (MQNB), undagi (V-P)-muhit shakllanishiga doir ilmiy g'oyalar, nazariy qarash va kontsepsiyalar, atamalar, tushunchalar, tamoyillar, yondashuv, usul, uslub va yo'sinlar bo'yicha tizimlashtirilgan zaruriy bilim, amaliy ko'nikma va malaka asoslarini shakllantirishdan iborat. Ushbu fan baholash va rieltorlik faoliyatlarining nazariy va metodologik bazisini tashkil etuvchi tayanch ixtisoslik fani hisoblanadi.

FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Talaba “Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” fanini o‘zlashtirishda ta’limning innovatsion usullaridan foydalanishi, yangi pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o‘zlashtirishda o‘quv-uslubiy ta’minot (darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, modul topshiriqlari)dan foydalanilish tavsiya etiladi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda turli metod va vositalardan, xususan, aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o‘yinlar, portfolio, keys-stadi, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, korrelyasion-regression tahlil va modellashtirish dasturlari) va internet tizimlaridan foydalanish mumkin.

AMALIY MASHG‘ULOTNING TASHKILIY SHAKLLARI HAMDA AXBOROT TA‘MINOTI

Aslida amaliy mashg‘ulot degan tushuncha uning auditoriya va undan tashqarida, o‘qituvchi rahbarligi ostida yoki o‘qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi. Amaliy mashg‘ulot qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada – ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar bo‘yicha vazifalar berish jarayonida;
2. O‘qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog‘ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, qarzdorlikni yo‘qotishda, yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.
3. Kutubxonada, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o‘quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida. Bu ish turlari orasidagi chegaralar juda qa’tiy bo‘lmasdan bir-biriga osonlikcha o‘tib turishi mumkin. Bir narsani ta’kidlash joizki, amaliy mashg‘ulot auditoriyada ham, undan tashqarida ham bo‘lishi mumkin. Auditoriyadan tashqaridagi amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini bajarilishi asosiy ahamiyat kasb etadi.

Amaliy mashg'ulot uchun test savollari, topshiriqlar va mashqlar ustida ishlash asosan mustaqil bajariladi. Bu ish natijalari esa auditoriyada amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va baholanadi.

Demak, amaliy mashg'ulot va auditoriya mashg'ulotlari bir-birini to'ldiradi, talabalarning ishga yondashuvini ta'minlaydi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

- hisob-grafik ishlarini bajarish;

- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish (keys-stadi);

- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;

- o'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, amaliy mashg'ulotni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

Amaliy mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt budjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda amaliy mashg'ulotning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

Amaliy mashg'ulotni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy metodik qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bakalavr talabalari uchun muayyan fan bo'yicha amaliy mashg'ulot topshiriqlari tegishli kafedra professori (yoki yetakchi dotsenti) tomonidan o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi, hamda

kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabaga berilgan topshiriqda amaliy mashg'ulot ni bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar bazasi va boshqalar xizmat qiladi.

Institut rahbariyati tomonidan talabalarga amaliy mashg'ulot topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter texnikasi va internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Talaba amaliy mashg'ulot topshiriqlariga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahat soatlari jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talaba amaliy mashg'ulot topshiriqlarini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning amaliy mashg'ulot topshiriqlari, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

Talaba amaliy mashg'ulot topshiriqlarini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Amaliy mashg'ulot uchun belgilangan maksimal reyting balining 55% dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Fanlar kesimida bakalavr talabalarining amaliy mashg'ulot topshiriqlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruxlarida, kafedra yig'ilishlarida muhokama etib boriladi.

Talabaning amaliy mashg'ulot uchun bajargan topshiriqlari kafedrada o'quv yili mobaynida saqlanadi.

Amaliy mashg'ulot bo'lajak mutaxassisning fikrlash tarzini tarbiyalashga qaratilgan harakatlar yig'indisidir. Talaba mustaqil fikri tug'ilishiga, uning bilish faolligini oshirishga imkon beradigan har qanday mashg'ulot turi amaliy mashg'ulot bilan chambarchas bog'liqdir.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Ta'lim jarayonida talabalar tomonidan amaliy mashg'ulot topshiriqlarini o'z vaqtida bajarilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'payishiga, innovatsion faoliyatga qobil bo'lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishdan iboratdir. Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o'qituvchi tomonidan talabaga berishning o'zigina kamlik qiladi.

Bunday yo'l talabaning bilimlarni o'zlashtirishning passiv iste'molchisiga aylantirib qo'ygan bo'lar edi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o'zlashtirishdagi passiv iste'molchi emas, balki uning faol ijodkoriga aylantirish zarurati bor. Natija shunday bo'lishi kerakki, bo'lg'usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo'llarini ilmiy yoki uslubiy jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, uning to'g'riligini isbotlab bera oladigan bo'lsin.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ayniqsa ta'lim mazmuni bilan bog'liq, yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakl va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma'noda talabalarning amaliy mashg'ulotini

tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi.

Bu yerda asosiy gap talabalarning amaliy mashg'ulotiga ajratilgan soatlar haqida ketayotgani yo'q. Amaliy mashg'ulot rolining ortishi oliy ta'limdagi o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish tubdan qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi. Amaliy mashg'ulot jarayonini shunday tashkil etish kerakki, uning natijasida talabada mustaqil bilim olishga, bilimlarini hayotga tadbiq etishga oid qobiliyati, ko'nikma va malakalari shakllansin.

5231500 – “Baholash ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida “Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” fanidan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti

T/r	Fan mavzularining nomi	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot
Kuzgi semestr			
1.	Mulk va mulkiy huquq tushunchalari, ularga oid nazariy qarash va bilimlar tizimi	4	4
2.	Mulkni tasniflash va tavsiflash	8	8
3.	Mulkning qiymati, narxi, qimmatligi va ularni baholashga oid nazariy qarashlar	10	10
4.	Mulk (mulkiy huquqlar) bozorining nazariy asoslari	8	8
5.	Mulk bozori narxlari va ularni tahlil qilish asoslari	6	6
Jami		36	36
Bahorgi semestr			
6.	Mulk (mulkiy huquq) qiymatini baholash xizmatlari bozori	6	6
7.	Mulk (mulkiy huquq) qiymatini baholash va boshqarishning nazariy va metodologik asoslari	10	10
8.	Mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori	4	4
9.	Ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga asoslangan zamonaviy mulk to‘g‘risidagi multifan va adolatli qiymat kontseptsiyasi asoslari	6	6
10.	Mulk adolatli qiymatini baholash va boshqarishning metodologik va amaliy asoslari	6	6
11.	O‘zbekistonda mulk qiymati bahosi va narxi shakllanishining sharoitlari va xususiyatlari	4	4
Jami		36	36
		72	72

**“MULK, QIYMAT VA NARXNING NAZARIY ASOSLARI”
FANINING HAR BIR MAVZUSI BO’YICHA AMALIY MASHG’ULOT
TOPSHIRIQLARI**

**1-MAVZU. MULK VA MULKIY HUQUQ TUSHUNCHALARI,
ULARGA OID NAZARIY QARASH VA BILIMLAR TIZIMI**

Mulk va mulkiy huquq tushunchalari, ular bo’yicha nazariy qarash va bilimlar; fuqarolik huquqlari ob’yektlarining xossalari va ta’minot turlari; mulkiy munosabatlar; mulkchilik tizimi va (V-P)-muhit tushunchalari.

Topshiriqlar


Muhokama uchun savollar:

1. Mulkning boshlang’ich va zamonaviy tushunchalarining farqi nimalardan iborat.
2. Mulkning ko’p turliligi nimalar asosida izohlanadi.
3. Mulk qanday omillarga ta’sitchan.
4. Mulkchilik tizimini qanday ifodalash mumkin.
5. Mulkchilik tizimi tarkibiga qanday institutlar kiradi.
6. “Ne’mat-fantom-mulkdor” uchligi nima uchun o’rinli.
7. Mulkiy naf nazariyasining qanday yo’nalishlari mavjud.
8. Mulkiy huquq nazariyasining qanday fundamental qoidalarini bilasiz.
9. Mulkiy huquq nazariyasining markaziy tushunchasi qanday ifodalanadi.
10. Mulkiy huquq triadasi nimalardan iborat.


2. “Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari fanining boshqa fanlar bilan aloqasini tahlil qiling va xulosalarni shakllantiring (berilgan sxemani fanning strukturasi va boshqa fanlar bilan aloqasini ko’rsatib, to’ldiring)

<i>Fanning maqsadi:</i>	<i>Fanning vazifalari:</i>	<i>Fanning predmeti:</i>	
<i>Fannina strukturasi</i>			
<i>Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi:</i>			

3. “Ne'mat-fantom-mulkdor” triadasining tuzilmaviy-funksional sxemasini tushuntiring va izohlang



4. Mulkchilik tizimining namunaviy tuzilmaviy funksional modelini tushuntiring va izohlang.



Testlarni yeching:

1. Qiymatning mehnat nazariyasiga asosan mulkning tovar sifatidagi mazmuni nimadan iborat?

a. uni ishlab chiqarishga ketgan mehnat hajmi bilan belgilanadi;

b. qiymat va narx belgilanishining asosida mulk(tovar)ning foydali(nafli)ligi yotadi;

c. mehnat - bu barcha mulk va tovarlarda mujassamlashgan umumiy asos.

2. Qaysi qatorda mulkiy huquq nazariyasi rivojiga xissa qo'shgan olimlar keltirilgan?

a. A.Marshall, Dj.Hiks, G.Demsec, L.Ennekcerus

b. R.Kouz, R.Savatye, T.Kouplend, D.Murzin, R.Kapelyushnikova

c. Barcha javoblar to'g'ri

3. Mulkiy huquq tizimi bu

a. Cheklangan resurslar bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar summasi bo'lib, ular jarayonida jamiyatning alohida a'zolari o'zaro manfaatli ziddiyatda bo'ladi;

b. mulkiy huquq jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatuvchi qoidalar;

c. mulkiy huquq sub'yektlarining ne'matlar bo'yicha hatti-harakatlari me'yorini belgilaydi

4. Mulkiy huquqning vujudga kelish asoslari numalardan iborat?

a. Mehnat faoliyati, mol-mulkni yaratish, ko'paytirish;

b. Mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik, davlat mol-mulkini xususiylashtirish;

c. Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat

d. Barcha javoblar to'g'ri

5. FHO tovar sifatida qanday hossani o'zaro birlashtiradi?

a. iste'molchi (mulk haridori, potentsial mulkdor) nuqtai nazaridan shakllanuvchi qiymat xossasini; sotuvchi (mulkdor) nuqtai nazaridan shakllanuvchi

qiymat xossasini; mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida (MQBHB) baholanuvchi aniq (real) qiymat xossasini;

b. mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida (MQBHB) baholanuvchi aniq (real) qiymat xossasini;

c. iste'molchi (mulk haridori, potentsial mulkdor) nuqtai nazaridan shakllanuvchi qiymat xossasini;

6. Mulkning ijtimoiy ta'minoti -.....

a. jamiyatda FHO bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishning mental shart-sharoitlari (millatning ma'naviyati, urf-odatlar, qadriyatlar, madaniyati, tarixi), diniy qoidalar tizimi, etikaviy qoidalar, tolerantlik va umuminsoniylik me'yorlari, ijtimoiy institutlar faolligi sharoitlari bilan ta'minlanganligi;

b. mamlakat iqtisodiyotida FHO bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlari, printsiplari, iqtisodiy me'yorlari tizimi (mexanizmi) bilan ta'minlanganligi;

c. jamiyatda FHO bilan bog'liq yuridik munosabatlarni amalga oshirishning modeli (huquqiy mexanizmi), huquqiy-me'yoriy hujjatlari tizimi

7. FHOning axborot (informatsion) ta'minoti -.....

a. mulkiy huquq sub'yektlari va potentsial mulkdorlarning FHO holati va u bilan bog'liq jarayon va hatti-harakatlarni transparent (informatsion shaffof) ifodalashga qaratilgan axborotlar va hisobotlar tizimi (mexanizmi) bilan ta'minlanganligi;

b. mamlakat doirasida mulkiy munosabatlarni davlat siyosatiga mos ravishda amalga oshirishning siyosiy shart-sharoitlari va qoidalar tizimi

c. jamiyatda FHO bilan bog'liq yuridik munosabatlarni amalga oshirishning modeli (huquqiy mexanizmi), huquqiy-me'yoriy hujjatlari tizimi.

2-MAVZU. MULKNI TASNIFLASH VA TAVSIFLASH


Mulkning fuqarolik huquqlari obyektlari sifatida tasniflash va tavsiflash metodologiyasi; fuqarolik huquqlari obyektlarining hayot sikllari; fuqarolik huquqlari obyektlarining ko'rsatkichlari; mulkiy huquq obyektlari va munosabatlariga ta'sir etuvchi omillar.

Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:

1. Mulk va uning ko'rsatkichlarini tasniflashning verbal shakli qanday amalga oshiriladi.
2. Mulk va uning ko'rsatkichlarini tasniflashning jadval shakli qanday amalga oshiriladi.
3. Mulk va uning ko'rsatkichlarini tasniflashning sxematik shakli qanday amalga oshiriladi.
4. Mulkni tasniflashning ilmiy-metodologik yondashuvi qanday amalga oshiriladi.
5. Moddiy shakldagi mulk deganda nimani tushunasiz.
6. Mulkning hayot sikli va davrlari deganda nimani tushunasiz.
7. Tasniflash metodologiyasining tarkibiga nimalar kiradi.
8. Zamonaviy mulkning eskirishi deganda nimani tushunasiz.
9. "Omil-oqibat-omil" uchligi deganda nimani tushunasiz.
10. Omil va ko'rsatkich farqining shartliligi nimada.

2. Mamlakatning MB va MQBXB muhitlarini shakllantiruvchi qanday omillar mavjud (quyidagi chizmani to'ldiring)



3. Quyida keltirilgan mulk bozori (MB) va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori(MQBHB)ga ta'sir etuvchi mahsus omillarga misollar keltiring.

T.R.	TASNIF GURUHI	Tegishli sifatiy va miqdoriy indikatorlarda namoyon bo'luvchi asosiy omillar
1	TASHQI OMILLAR	• iqtisodiy globallashtirish tendentsiyalari va muammolari; • iqtisodiy sikllar va ularga mos inqirozlar; • jahon bozoridagi qiymat va narxlar ; • global va mintaqalar miqyosidagi: tabiiy ofat va kataklizmlar, urush va revolyutsiyalar, terrorizm va h.k.; • dunyoning yetakchi davlatlarining global va jahon mintaqalari miqyosidagi siyosatlar; • dunyodagi har bir davlatning o'ziga xos rivojlanish tendentsiyalari, muammolari va shu kabi boshqalar.
2	ICHKI MAKRO OMILLAR	• jamiyatning tanlagan ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish modeli, unda millat mentaliteti, urf-odati, psixologiyasi va uning hududiy xususiyatlari; • mamlakat va uning hududlarida inson omilining rivojlanishi darajasi, innovatsion salohiyati; • mulkchilik tizimi modeli, xususi mulkning himoyalanganlik darajasi; • mamlakatning barqarorligi va kredit reytingi; • milliy bozor infratuzilmasining rivojlanganlik va ochiqlik darajasi, hufiya bozorning ko'lami; • davlat institutlarining rivojlanganlik va korruptsiyalanganligi darajasi; • biznes va mulk huquqlarini kafolatlanganligi; • mamlakatning tabiiy va iqtisodiy resurslarga egaligi, geografik joylashuvi, unda resurslarning hududlar bo'yicha taqsimlanganligi ko'rsatkichlari;

		mamlakatdagi mavjud makroiqtisodiy sharoit, biznes va investitsiya muhiti, milliy va hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va h.k.
3	ICHKI MEZO VA MIKRO OMILLAR	- biznes riski, raqobatbardoshlik va moliyaviy xavfsizlik darajasi, reytingi; - korporativ boshqaruv siyosati modeli va reytingi, bunda transparentlik va investorlar haq-huquqlarini himoyalanganlik darajasi; - tadbirkorlik sub'yektlarining biznes va investitsion faolligi, iqtisodiy barqarorligi, geografik va iqtisodiy erkinligi, hududiy taqsimlanishi; - hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari hamda ichki bozorlarning barqarorligi va bir-biri bilan bog'liqligi; - moliya va kredit tizimining, mulk va xizmat turlari bo'yicha ichki bozorlarning rivojlanganligi, barqarorligi va raqobatbardoshligi; - iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'yektlarining ekologik madaniyati, innovatsionlik darajasi; - raqobat turi va usullari, iqtisodiy harajatlar va h.k.
4	ICHKI NANO OMILLAR	- inson va oila jipsligi (birdamligi), totuvligi, madaniyati, qadr-qimmati, urf-odatlar, mentaliteti va haq-huquqlari, uning iqtisodiy va siyosiy faolligi; - insonlarning o'rtacha yoshi, turmush, bilim va daromadlari darajasi hamda uy ho'jaliklarining rivojlanganligi; - uy ho'jaliklari kapitali, mol-mulki, daromadi, uy-joy bilan ta'minlanganligi darajasi va h.k.
5	MAXSUS ICHKI OMILLAR	- MB va MQBHBning faoliyat modellari, ulardagi risk, raqobat va rivojlanish darajasi; - bu bozorlarda faoliyat yuritish muhitining qulayligi - MB va MQBHBni ochiqqligi, regulyativ modeli, transparentligi, halqaro darajada integrallashganligi; - baholash va rieltorlik bizneslari muhiti; - MB va MQBHB orqali qabul qilinadigan boshqarish, tashkiliy, regulyativ, sub'yektiv qarorlar samarasi; - mulkning texnik, iqtisodiy, yuridik, informatsion xossalari, ko'rsatkichlari, sifatleri; - mulkiy munosabatlar, xususiy mulkchilik tizimi samaradorligi; - mulk turlari bo'yicha bozorlar va mulk qiymatini baholash bozorini ularning har biriga hos funktsiyalari bajarilishining to'liqlik darajasi va h.k.

Testlarni yeching:

1. Mulk qiymatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar qaysi qatorda keltirilgan?

a. iqtisodiy globallashtiruv tendentsiyalari va muammolari iqtisodiy sikllar va ularga mos inqirozlar jahon bozoridagi qiymat va narxlar global va mintaqalar miqyosidagi: tabiiy ofat va kataklizmlar, urush va revolyutsiyalar, terrorizm va h.k. dunyoning yetakchi davlatlarining global va jahon mintaqalari miqyosidagi

siyosatlarini dunyodagi har bir davlatning o'ziga xos rivojlanish tendentsiyalari, muammolari;

b. jamiyatning tanlagan ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish modeli, unda millat mentaliteti, urf-odati, psixologiyasi va uning hududiy xususiyatlari mamlakat va uning hududlarida inson omilining rivojlanishi darajasi;

c. biznes riski, raqobatbardoshlik va moliyaviy xavfsizlik darajasi, reytingi korporativ boshqaruv siyosati modeli va reytingi, bunda transparentlik va investorlar haq-huquqlarini himoyalanganlik darajasi tadbirkorlik sub'yektlarining biznes va investitsion faolligi, iqtisodiy barqarorligi, geografik va iqtisodiy erkinligi,

2. Mulk qiymatiga ta'sir etuvchi ichki makro omillar qaysi qatorda keltirilgan?

a. biznes riski, raqobatbardoshlik va moliyaviy xavfsizlik darajasi, reytingi korporativ boshqaruv siyosati modeli va reytingi, bunda transparentlik va investorlar haq-huquqlarini himoyalanganlik darajasi;

b. jamiyatning tanlagan ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish modeli, unda millat mentaliteti, urf-odati, psixologiyasi va uning hududiy xususiyatlari mamlakat va uning hududlarida inson omilining rivojlanishi darajasi, innovatsion salohiyati mulkchilik tizimi modeli, xususiy mulkning himoyalanganlik darajasi mamlakatning barqarorligi va kredit reytingi milliy bozor infratuzilmasining rivojlanganlik va ochiqlik darajasi, hupfiya bozorining ko'lami davlat institutlarining rivojlanganlik va korruptsiyalanganligi darajasi biznes va mulk huquqlarini kafolatlanganligi mamlakatning tabiiy va iqtisodiy resurslarga egaligi, geografik joylashuvi;

c. geografik va iqtisodiy erkinligi, hududiy taqsimlanishi hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari hamda ichki bozorlarning barqarorligi va bir-biri bilan bog'liqligi moliya va kredit tizimining, mulk va xizmat turlari bo'yicha ichki bozorlarning rivojlanganligi, barqarorligi va raqobatbardoshligi iqtisodiyot

tarmoqlari va tadbirkorlik sub'yektlarining ekologik madaniyati, innovatsionlik darajasi; raqobat turi va usullari, iqtisodiy harajatlar;

3. Qiymat nazariyasiga ko'ra, mulk qiymatiga ta'sir etuvchi asosiy omil qaysi bandda to'g'ri keltirilgan?

a. naflilik (foydalilik), defitsit (noyoblik, kamyoblik), istemolchanlik va real harid imkoniyati;

b. defitsit (noyoblik, kamyoblik), istemolchanlik va real harid imkoniyati;

c. defitsit (noyoblik, kamyoblik), istemolchanlik va naflilik (foydalilik)

4. Mulk qiymatiga ta'sir etuvchi omillar nimalar orqali namoyon bo'ladi?

a. mulkning texnik-texnologik ko'rsatkichlari; mulkning fantomlari; mulk qiymati va narxining o'zaro ekvivalent bog'liqligi; mulkdan eng yahshi va eng samarali foydalanish;

b. mulkning nafliligi to'g'risidagi tasavvur; mulkning texnik-texnologik ko'rsatkichlari; mulkning fantomlari; mulk qiymati va narxining o'zaro ekvivalent bog'liqligi; mulkdan eng yahshi va eng samarali foydalanish;

c. mulkning texnik-texnologik ko'rsatkichlari; mulkning fantomlari; mulk qiymati va narxining o'zaro ekvivalent bog'liqligi

5. Mulk qiymatiga ta'sir etuvchi maxsus ichki omillar qaysi qatorda to'liq keltirilgan?

a. MB va MQBHBning faoliyat modellari, ulardagi risk, raqobat va rivojlanish darajasi bu bozorlarda faoliyat yuritish muhitining qulayligi MB va MQBHBni ochiqqligi, regulyativ modeli, transparentligi, halqaro darajada integrallashganligi baholash va rieltorlik bizneslari muhiti; MB va MQBHB orqali qabul qilinadigan boshqarish, tashkiliy, regulyativ, sub'yektiv qarorlar samarasi; mulkning texnik, iqtisodiy, yuridik, informatsion xossalari, ko'rsatkichlari, sifatlari; mulkiy munosabatlar, xususiy mulkchilik tizimi samaradorligi mulk turlari bo'yicha bozorlar va mulk qiymatini baholash bozorini ularning har biriga xos funtsiyalari bajarilishining to'liqlik darajasi;

b. MB va MQBHBning faoliyat modellari, ulardagi risk, raqobat va rivojlanish darajasi bu bozorlarda faoliyat yuritish muhitining qulayligi MB va

MQBHBni ochiqqligi, regulyativ modeli, transparentligi, halqaro darajada integrallashganligi baholash va rieltorlik bizneslari muhiti; MB va MQBHB orqali qabul qilinadigan boshqarish;

c. MB va MQBHBni ochiqqligi, regulyativ modeli, transparentligi, halqaro darajada integrallashganligi baholash va rieltorlik bizneslari muhiti; MB va MQBHB orqali qabul qilinadigan boshqarish, tashkiliy, regulyativ, sub'yektiv qarorlar samarasi; mulkning texnik, iqtisodiy, yuridik, informatsion xossalari, ko'rsatkichlari, sifatlari; mulkiy munosabatlar, xususiy mulkchilik tizimi samaradorligi mulk turlari bo'yicha bozorlar va mulk qiymatini baholash bozorini ularning har biriga xos funtsiyalari bajarilishining to'liqlik darajasi.

3-MAVZU. MULKNING QIYMATI, NARXI, QIMMATLILIGI VA ULARNI BAHOLASHGA OID NAZARIY QARASHLAR

Mulkning qiymati, narxi va qimmatliligi kategoriyalari to'g'risida qadimgi dunyo va o'tgan asrlar Yevropasi iqtisodiyot fani namoyondalarining qarashlari; mulk qimmati, qiymati va narxi bilan bog'liq amaliyotning nazariy va metodologik asoslari; O'zbekistonda mulk qiymati, narxi, qimmati va ular bahosi kategoriyalariga oid ba'zi terminologik masalalar; huquqiy va iqtisodiy fantomlarning manbalari; huquqiy va iqtisodiy fantomlar investitsion va boshqarish qarorlarini qabul qilish omili sifatida.

Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:

1. Mulkning qiymati, narxi va qimmatliligi kategoriyalari to'g'risida qadimgi dunyo iqtisodiyot fani namoyondalarining qarashlari qanday ahamiyatga ega.
2. Mulkning qiymati, narxi va qimmatliligi kategoriyalari to'g'risida o'tgan asrlar Yevropasi iqtisodiyot fani namoyondalarining qarashlari qanday ahamiyatga ega.

3. O'zbekistonda mulk qiymati, narxi, qimmat va ular bahosi kategoriyalariga oid terminologik bazis deganda nimani tushunasiz.

4. Tannarx iborasining kamchiligi nimada.

5. Huquqiy va iqtisodiy fantomlarning qanday manbalarini bilasiz,

6. Nima uchun huquqiy va iqtisodiy fantomlarni investitsion va boshqarish qarorlarini qabul qilishning omili deyiladi.


7. Zamonaviy ne'mat nazariyasining ilmiy asoslari sifatida qaysi nazariy konsepsiyalarni ko'rsatish mumkin.

8. Qiymat va narxning o'zaro transformatsiyalanishi deganda nimani tushunasiz.


9. Mulkiy huquqlar triadasi tarkibiga qanday huquqlar kiradi.

10. NM ga qanday substansiyalar ekvivalent.


2. Mulk qiymatini baholash bosqichlari (quyidagi chizmani to'ldiring).




3. Mulkning subyektivlik xarakteridagi ma'naviy qimmatligini ushbu mulkning moddiy qimmatligiga va aksincha tomonga transformatsiyalanishining sxematik jarayonini tushuntirib bering.



4. MQBHB qiymatini MB narxiga va aksincha MB narxini MQBHB qiymatiga transformatsiyalanishi printsipini tushuntirib bering.



5. Ne'mat-mulk (NM) tomonidan iqtisodiy fantom (IF) va huquqiy fantom (HF) ekvivalent bog'liqligini ta'minlashning hamda boshqaruv va investitsion qarorlar qabul qilishning tuzilmaviy-funksional modelini tushuntiring.



Testlarni yeching:

1. Ko'chmas mulk obyektlari hayot davrining bosqichlari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

a. Emissiyaga tayyorgarlik bosqichi, loyihalash bosqichi, eksperimental va to'liq foydalanish bosqichi;

b. Loyiha oldi (boshlang'ich) bosqichi, loyihalash bosqichi, qurilish bosqichi, ko'chmas mulk obyektni ekspluatatsiya bosqichi, obyektning tugatish bosqichi;

c. loyihalash bosqichi, eksperimental va to'liq foydalanish bosqichi, obyektning tugatish bosqichi

2. Ko'chmas mulkning iqtisodiy hayot muddati.....

a. Ko'chmas mulk obyektning buzib tashlangungacha yaroqli holda mavjud bo'lishining real davridir;

b. Obyekt mavjud bo'lib, unda yashash yoki ishlash mumkin bo'lgan vaqt bo'lagidir;

c. Obyekt daromad manbayi sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan davr vaqtini belgilaydi.

3. Ko'chmas mulk hayot davri.....

a. Obyekt mavjud bo'lib, unda yashash yoki ishlash mumkin bo'lgan vaqt bo'lagidir;

b. Obyekt daromad manbayi sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan davr vaqtini belgilaydi.

c. Ko'chmas mulk obyektning buzib tashlangungacha yaroqli holda mavjud bo'lishining real davridir

4. Ko'chmas mulk obyektning samarali yoshi.....

a. Obyektning ishga tushgan paytidan boshlab ekspluatatsiyada bo'lish davriga mos keladi;

b. Tashqi ko'rinish, texnik holat kabi ko'rsatkichlarga bog'liq obyekt yoshini ko'rsatadi;

c. Ekspert-baholovchi tomonidan obyektning baholash maqsadida ishlatiladi va baholash sanasidan to obyektning iqtisodiy hayoti tugaguncha bo'lgan davrni qamrab oladi

5. Xronologik yosh.....

a. Ekspert-baholovchi tomonidan obyektning baholash maqsadida ishlatiladi va baholash sanasidan to obyektning iqtisodiy hayoti tugaguncha bo'lgan davrni qamrab oladi;

b. Tashqi ko'rinish, texnik holat kabi ko'rsatkichlarga bog'liq obyekt yoshini ko'rsatadi;

c. Obyektning ishga tushgan paytidan boshlab ekspluatatsiyada bo'lish davriga mos keladi

6. Ko'chmas mulk obyektining ma'naviy eskirishiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif keltirilgan?

a. Funktsional foydalilik nuqtayi nazaridan obyektning zamonaviy talablarga mos kelmasligidir;

b. Iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar ta'siri ostida atrof-muhitning yomonlashuvi tufayli bino qiymatining pasayishidir;

c. Ekspluatatsion omillar va tabiiy ta'sirlar oqibatida jismoniy xususiyatlarning o'zgarishi

7. Ko'chmas mulk obyektining iqtisodiy eskirishiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif keltirilgan?

a. Ekspluatatsion omillar va tabiiy ta'sirlar oqibatida jismoniy xususiyatlarning o'zgarishi;

b. Iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar ta'siri ostida atrof-muhitning yomonlashuvi tufayli bino qiymatining pasayishidir;

c. Funktsional foydalilik nuqtayi nazaridan obyektning zamonaviy talablarga mos kelmasligidir

8. Mumtoz (klassik) yondashuvga asosan qiymat va narx.....

a. tovarning (unga bo'lgan huquqlarning) pulda ifodalangan bahosi;

b. tovarning foydaliligini baholovchi vosita;

c. ishlab chiqarish xarajatlarining pulda ifodalangan chegaraviy foydaliligi hamda talab va taklif nisbati

9. Zamonaviy neoklassik yondashuvga asosan narx -.....

a. tovarning foydaliligini baholovchi vosita;

b. tovarning (unga bo'lgan huquqlarning) pulda ifodalangan bahosi;

c. ishlab chiqarish xarajatlarining pulda ifodalangan chegaraviy foydaliligi hamda talab va taklif nisbati

10. Mulkning inventarizatsion qiymatiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif keltirilgan?

a. mulkni soliqqa tortish maqsadida baholangan qiymati;

b. mulkning buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlari asosida baholangan qiymati;

c. mulkning erkin (ochiq), yuqori darajada tashkillashgan va barqaror likvid bozorida manipulyatsiyasiz ob'yektiv kon'yunktura (talab va taklif) hamda prognozlanuvchan bozor harakati psixologiyasi asosida sodir bo'lgan va o'xshash mulkning bozor qiymati bilan bog'liq, lekin ushbu qiymatdan farqi belgilangan chegaradan oshmagan holda shakllangan qiymatidir

4-MAVZU. MULK (MULKIY HUQUQLAR) BOZORINING NAZARIY ASOSLARI

Mulk bozorining umumiy bozor sifatidagi tushunchasi, nazariy asoslari va uning tovari fuqarolik huquqlari obyektlari ekanligi to'g'risida; mulk bozorining iqtisodiyotdagi o'rnini va unda davlatning faoliyati; mulk bozori va real iqtisodiyotning regulativ bog'liqlikdagi faoliyatini ifodalovchi tuzilmaviy model; mulk bozorini tartibga solish asoslari.

Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:

1. Mulk bozorining iqtisodiyotdagi o'rnini qanday ifodalash mumkin.

2. Mulk bozori quvvati potentsiali nima.


3. Mulk bozorining maqsadi va vazifasi nimadan iborat.

4. Mulk bozori faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar bo'lishi lozim.
5. MBning anglo-sakson modeli mazmuni nimadan iborat.
6. mazmuni nimadan iborat.
7. MBning aralash (gibrid) modeli mazmuni nimadan iborat.
8. MB modellarini qaysi belgilar bo'yicha tasniflash mumkin.
9. Mulk bozorining qanday tamoyillarini bilasiz.
10. Mulk bozori narxi qanday turlanadi.


2. Quyidagi bozor modellarining izohini keltiring va ularni bir-biridan farqli jihatlarini yoritib bering

MBning anglo-sakson modeli	
MBning kontinental modeli	
MBning aralash (gibrid) modeli	


3. Mulk bozorining funktsional-tuzilmaviy sxemasini tushuntiring.



4. Mulk bozorining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini ifodalovchi tuzilmaviy-funktsional molelni tushuntiring



5. Milliy real iqtisodiyot (MRI) va MBni umumiy makroregulyator (M) orqali o'zaro bog'liqlikda faoliyat ko'rsatishining tuzilmaviy modelini tushuntiring.



Testlarni yeching:

1. Mulk bozorning maqsadi nimadan iborat?

a. bozor ishtirokchi(qatnashchi)larining tovarlar oqimi bilan bog'liq erkin raqobatini ta'minlashdan iborat;

b. bozor ishtirokchi(qatnashchi)larining tovarlar oqimi bilan bog'liq erkin raqobatli va transparent munosabatlarini amalga oshirishlari uchun ob'yektiv kon'yunktura, yetarli, zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining regulativ “barometri” rolini bajarish;

c. bozor qatnashchilarining erkin raqobatli va transparent munosabatlarini amalga oshirishlari uchun ob'yektiv kon'yunktura, yetarli, zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat

2. Mulk bozorning funksiyalari qaysi bandda to'liq keltirilgan?

a. Makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus;

b. Umumbozor, maxsus, iqtisodiy globallashtirish;

c. Makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus, iqtisodiy globallashtirish

3. Mulk bozorning amaliy funktsiyalari

a. tovarning bozor muhitida zaruriy funktsiyasini bajarishiga shart-sharoitlar yaratish, ob'yektiv bozor kursini (narxini) va hajmini belgilash, “pul-tovar- Δ ” sxemasida ularning o'zaro ekvivalentligini aniqlash, tovar va pul resurslarining samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlash, bozor tovari bilan bog'liq biznesni baholash, tartiblashtirish va raqobatli rivojlantirish, iqtisodiyotning holatini sifatiiy va miqdoriy ifodalash;

b. bozor muhitini rivojlantirishdan iborat;

c. bozor tovari muomalasi bilan bog'liq bozor munosabatlarini tizimli tadqiq etish va rivojlantirishning nazariy asoslarini, yondashuv va usullarini takomillashtirish va rivojlantirish

4. Mulk bozorning metodologik funktsiyasi.....

a. bozor muhitini rivojlantirishdan iborat;

b. tovarning bozor muhitida zaruriy funktsiyasini bajarishiga shart-sharoitlar yaratish, ob'yektiv bozor kursini (narxini) va hajmini belgilash, “pul-tovar- Δ ” sxemasida ularning o'zaro ekvivalentligini aniqlash, tovar va pul resurslarining samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlash, bozor tovari bilan bog'liq biznesni baholash, tartiblashtirish va raqobatli rivojlantirish, iqtisodiyotning holatini sifatiiy va miqdoriy ifodalash;

c. bozor tovari muomalasi bilan bog'liq bozor munosabatlarini tizimli tadqiq etish va rivojlantirishning nazariy asoslarini, yondashuv va usullarini takomillashtirish va rivojlantirish

5. Mulk bozorning qo'shimcha vazifalari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

a. tovar ishlab chiqaruvchilarning moliya va tovar oqimlarini optimallashtirish, iqtisodiy manfaatlarini himoyalashini ta'minlash; bozor qatnashchilarining ijobiy imidjini shakllantirish;

b. biznesni rivojlantirish va qo'shimcha ish joylarini yaratish; jahon bozor tizimiga integratsiyalashtirish; siyosiy va iqtisodiy vositasi sifatida ta'sir ko'rsatish;

c. barcha javoblar to'g'ri

6. Haridorning bozordagi funksiyasi nimadan iborat?

a. pul-tovar muomalasida erkin va zaruriy talabni o'z mablag'i bilan ta'minlash, sifatli taklifni rag'batlantirish va rivojlantirish, bozor tovarining ob'yektiv narxi, hajmi (miqdori) va sifatini shakllanishida va tartiblanishida faol ishtirok etish asosida taklifni talab imkoniyatlariga mutanosiblashtirish va taklif tarkibini talab bilan to'ldirish, ishlab chiqarilgan mahsulotning harid qilinuvchi bozor tovari maqomini tasdiqlash;

b. pul-tovar muomalasida erkin va zaruriy taklifni o'z tovari bilan ta'minlash;

c. talab tarkibini taklif bilan to'ldirish


5-MAVZU. MULK BOZORI NARXLARI VA ULARNI TAHLIL QILISH ASOSLARI

Mulk (mulkiy huquq) bozorida narxlarning shakllanishi asoslari; mulk bozorida narx-navo tendentsiyalarini tahlil qilishning nazariy va metodologik asoslari; tahlil qilishda qo'llaniladigan yondashuv va usullar tizimi; tovar-hom ashyo bozori narxlari tendentsiyalarini tahlil qilishning xususiyatlari; ko'chmas mulk bozori narxlari tendentsiyalarini tahlil qilishning xususiyatlari; valyuta bozorlari kurslari tendentsiyalarini tahlil qilishning xususiyatlari; kapital bozorlari narxlari tendentsiyalarini tahlil qilishning xususiyatlari.


Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:

1. Tahlilning qanday yondashuv va usullarini bilasiz.
 2. Fundamental tahlil usuli mazmunan nimadan iborat.
 3. Texnik tahlil usuli mazmunan nimadan iborat.
 4. Tahlilda qanday uslublar qo'llaniladi.
 5. Tizimli yondashuv deganda nimani tushunasiz.
 6. Tizimli tahlil va kompleks yondashuvning uyg'unligini qanday tushunish mumkin.
 7. Bozor narxlarining o'zgarish trendlarini tahlil qilish nima beradi.
 8. Bozor narxlarini prognoz qilish nima uchun kerak.
 9. Marketing tadqiqotlari nimalarni o'z ichiga oladi.
 10. Marketing tadqiqotlari qanday bosqichlardan iborat.
2. Turli pog'onalarda tizimli tahlil bosqichlarini tushuntiring.



3. Turli pog'onalarda tizimli sintez bosqichlarini tushuntiring.



Testlarni yeching:

1. Tizimli yondashuv bu.....

a. ilmiy bilim olish va amaliy faoliyat metodologiyasining shunday yo'nalishiki, uning asosida har qanday ob'yektni murakkab to'laqonli, masalan, texnik, biologik, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va h.k. tizim sifatida tadqiq etish yotadi;

b. amaliy faoliyat metodologiyasining yo'nalishi;

c. tadqiq qilinayotgan obyektni o'rganish, uni sifatiiy va miqdoriy baholash asosida kompleks ravishda keng va chuqur tushunish, undagi hossa va qonuniyatlar, munosabatlar, omillarning o'zaro bog'liqlikdagi ta'sirini aniqlash imkonini beradi

2. Tuzilmaviy tahlil uslubi

a. MB va uning tarkibiy qismlari funktsiyalarini tizimli tahlil qilish tamoyil va usullari yig'indisi;

b. MB tuzilmasi va uning tarkibiy qismlari (tizim, quyi tizim, unsurlar) tuzilmasini tizimli tahlil qilish tamoyil va usullari yig'indisi;

c. MB tuzilmasi va funktsiyalari parametr (ko'rsatkich)larini bir-biri bilan bog'liqlikda tizimli tahlil qilish tamoyil va usullari yig'indisi

3. Parametrik tahlil uslubi.....

a. MB tuzilmasi va uning tarkibiy qismlari (tizim, quyi tizim, unsurlar) tuzilmasini tizimli tahlil qilish tamoyil va usullari yig'indisi;

b. MB tuzilmasi va funktsiyalari parametr (ko'rsatkich)larini bir-biri bilan bog'liqlikda tizimli tahlil qilish tamoyil va usullari yig'indisi;

c. MB va uning tarkibiy qismlari funktsiyalarini tizimli tahlil qilish tamoyil va usullari yig'indisi

4. Diagnostik tahlil qilishning hozirgacha mavjud bo'lgan usullarini qanday guruhlarga ajratish mumkin?

a. faktorli tahlil usullari; ekspert baholash usullari;

b. aralash usullar; matematik usullar;

c. barcha javoblar to'g'ri

5. MBni tahlil qilishda qanday yondashuvlar qo'llaniladi?

a. ixtisoslashgan, faktorli (omilli), riskli;

b. faktorli (omilli), riskli

c. ixtisoslashgan

6. MBni tahlil qilishning omilli yondashuvi bu

a. Ushbu yondashuv mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan va omillar deb ataladigan ko'rsatkichlar yig'indisidan tarkib topadigan yiriklashtirilgan guruhlar tuzishdan iborat;

b. omillar ta'sirini namoyon qiluvchi tahlilning turli pog'onalarida qo'llaniluvchi indikatorlar dinamikasi bo'yicha baholashni nazarda tutadi;

c. Bu yondashuv universal sanalib, undan turli pog'onadagi xo'jalik tizimlari innovatsion muhitini tadqiq etishda foydalanish mumkin

7. Marketing tadqiqotlari qanday bosqichlardan iborat?

a. Tadqiqot kontsepsiyasini ishlab chiqish, tahlil qilish;

b. Empirik ma'lumotlarni olish, tahlil qilish, tadqiqot kontseptsiyasini ishlab chiqish;

c. Tadqiqot kontseptsiyasini ishlab chiqish, empirik ma'lumotlarni olish va tahlil qilish, asosiy xulosalar va tadqiqot natijalarini shakllantirish

6-MAVZU. MULK (MULKIY HUQUQ) QIYMATINI BAHOLASH XIZMATLARI BOZORI


Mulk (mulkiy huquq) qiymatini baholash xizmatlari bozori va baholash faoliyati bilan bog'liq tushunchalar; Mulk turlari bo'yicha baholash faoliyatini tasniflanishi va tamoyillari; Mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori infratuzilmasi va ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalari, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati; Mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori ko'rsatkichlari; Mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori va real iqtisodiyotning regulativ bog'liqlikdagi faoliyatini ifodalovchi tuzilmaviy model; Mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorini tartibga solish asoslari va transparentligi.

Topshiriqlar


Muhokama uchun savollar:

1. MQBXB deganda nimani tushunasiz.
2. MQBXB institutsional tuzilmasini va undagi operatsion kanallar mazmunini qanday talqin qilish mumkin.
3. MQBXBning maqsadi va vazifasi nimadan iborat.
4. MQBXBning ko'rsatkichlari.
5. Baholovchi va mulkdor o'rtasida kechadigan "pul (mulkdor) – xizmat (baholovchi) - Δ " uchlik sxemasini qanday tushunasiz.
6. MQBXBning qanday funksiyalarini bilasiz.
7. MQBXB iqtisodiy modelini qanday talqin qilish mumkin.
8. MQBXB va mulkdor (M) faoliyatida davlatning roli.
9. "M-MRI" juftligi.
10. MQBXBning qanday turlarini bilasiz.

2. Mulk qiymati baholash xizmatlari bozori (MQBHB)ning funktsional-tuzilmaviy sxemasini tushuntiring.



3. “MQBXB-MB” juftligi va “MRI-M” juftligini umumiy makroregulyator (MR) orqali o'zaro bog'liqlikda faoliyat yuritishining tuzilmaviy modelini tushuntiring.



Testlarni yeching:

1. MQBHB – bu.....

a. ma'lum hajm va narxga ega bo'lgan baholash xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tashkillashgan ijtimoiy-iqtisodiy-informatsion-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni turli omillar ta'siri sharoitida maqsadli amalga

oshirilishini ta'minlovchi yaxlit murakkab tizim (mexanizm) sifatida namoyon bo'luvchi baholash xizmatlari bo'yicha talab va taklif funktsiyasi;

b. ma'lum hajm, qimmat, qimmat va narxga ega bo'lgan tovarning erkin savdosi bilan bog'liq tashkillashgan ijtimoiy-iqtisodiy-informatsion-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni turli omillar ta'siri sharoitida maqsadli amalga oshirilishini ta'minlovchi yaxlit murakkab tizim (mexanizm) sifatida namoyon bo'luvchi tovar bo'yicha talab va taklif funktsiyasi;

c. to'g'ri javob yo'q

2. MQBHBning maqsadi -.....

a. bozor ishtirokchi(qatnashchi)larining tovarlar oqimi bilan bog'liq erkin raqobatini ta'minlashdan iborat;

b. bozor ishtirokchi(qatnashchi)larining tovarlar oqimi bilan bog'liq erkin raqobatli va transparent munosabatlarini amalga oshirishlari uchun ob'yektiv kon'yunktura, yetarli, zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining regulyativ "barometri" rolini bajarish;

c. mulk qiymatini baholash bilan bog'liq erkin raqobatga asoslangan malakali xizmatlar ko'rsatish uchun baholovchi va mulkdor (buyurtmachi) o'rtasidagi ochiq munosabat, ob'yektiv kon'yunktura, yetarli, zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratish

3. Iqtisodiyotda qanday shart-sharoitlar mavjud bo'lganda MQBHB samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin?

a. effektiv (samarali) mulkchilik tizimini mavjudligi; baholovchilarni sifatli xizmatlar, mulkdorlarni esa bunday xizmatlarga ekvivalent pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi;

b. talab va taklifni ob'yektiv mutanosibligi; bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining samarali faoliyati; bozor iqtisodiyoti qonunlari, tamoyillari va qonunchiligini hukm surish;

c. barcha javoblar to'g'ri

4. MQBHBning faoliyat ko'rsatishini asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

a. barcha potentsial buyurtmachilar o'z mablag'larini foydali tarzda baholash xizmatlariga yo'naltirishlari uchun ularga teng shart-sharoitlar yaratib berish; bozorda tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligi, ularning narxlarini ob'yektivligi va qonuniyligi;

b. erkin raqobat yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish; baholash faoliyati huquqiy ta'minotining sifatliyligi; baholash tashkilotlarining transparentliyligi;

c. barcha javoblar to'g'ri

5. Baholovchi bir nechta baholovchi tashkilotning muassisi bo'lishi mumkinmi?

a. Mumkin

b. Mumkin emas

c. Shtat birligi 0,5 stavkada bo'lish mumkin

6. Mulkni baholashdan ko'zlangan asosiy maqsad nimadan iborat?

a. Mulk obyekti qiymatini uning bozor narxlar bilan bog'liqlikda adolat nuqtai nazardan aniqlash;

b. O'xshash obyektlarning mulk bozorida talab va taklifga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

c. Mulk qiymatini bozorga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash

7. Baholovchining malaka sertifikatini qancha muddatga beriladi?

a. 3 yilga;

b. 5 yilga;

c. 1 yilga

8. Ko'char mulkni baholovchi tashkilotlarning ustav kapitali qancha miqdorda bo'lishi shart?

a. Eng kam oylik ish haqining 1500 baravarida;

b. Eng kam oylik ish haqining 3500 baravarida;

c. Eng kam oylik ish haqining 100 baravarida

9. Biznesni baholovchi tashkilotlarning ustav kapitali qancha miqdorda bo'lishi shart?

a. Eng kam oylik ish haqining 2500 baravarida;

b. Eng kam oylik ish haqining 1500 baravarida;

c. Eng kam oylik ish haqining 1000 baravarida

10. Baholovchi tashkilotlarini ustav kapitalining necha foizi pul mablag'lari ko'rinishida kiritilishi kerak?

a. Kamida 50 foizi;

b. Kamida 30 foizi;

c. Kamida 10 foizi

7-MAVZU. MULK (MULKIY HUQUQ) QIYMATINI BAHOLASH VA BOSHQARISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Baholash faoliyatining nazariy asoslari; baholashning matematik ta'minoti; mulk turlari bo'yicha baholashning metodologik asoslari (yondashuv va usullari, standartlar); mulk qiymatini maqsadli baholash; baholash - qiymatni boshqarish asosi; mulk qiymatini boshqarishning mazmuni va afzalliklari; mulkiy majmua (kompaniya) qiymatini boshqarishning horij tajribasi; mulk qiymatini baholash va boshqarishning zamonaviy konseptsialari; O'zbekistonda mulk qiymatini baholash va boshqarishning xususiyatlari.


Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:

1. Mulk qiymatini boshqarish deganda nimani tushunasiz.
2. Mulk qiymatini baholash va boshqarish nima uchun bog'liq.
3. Ko'chmas mulk qiymatini boshqarishning xususiyatlari nimadan iborat.
4. Qiymatni boshqarishning metodologik asoslari deganda nimani tushunasiz.
5. Qiymatni boshqarishning qanday konsepsiyalarini bilasiz.
6. Boshqarishning qanday tamoyillarini bilasiz.
7. Aktivlar qiymatini boshqarishning mazmuni nima.
8. Passivlar qiymatini boshqarishning mazmuni nima.
9. Boshqaruvning klassik nazariyasining mazmuni nima.

10. Tashqi boshqaruv deganda nimani tushunasiz.

2. Boshqaruvning klassik nazariyasida matritsali tashkiliy tuzilmasini izohlang




Boshqaruvning klassik nazariyasida matritsali tashkiliy tuzilma

3. Mulk qiymatini baholash usullarini yondashuvlar bo'yicha guruhlanishini tushuntiring.


Yondashuvlar	Usullar guruhi
Daromadga asoslangan	1) kapitalizatsiya usuli; 2) pul oqimlarini diskontlash usuli
Qiyosiy solishtirish	1) kapitallar bozori usuli; 2) tuzilgan bitimlar usuli; 3) tarmoqlar koeffitsiyentlari usuli
Xarajatlarga asoslangan	1) sof aktivlar usuli; 2) tugatish qiymati usuli

4. Boshqaruvning klassik nazariyasida chiziqli tashkiliy tuzilmasini izohlab bering.




Boshqaruvning klassik nazariyasida chiziqli tashkiliy tuzilma

5. Boshqaruvning klassik nazariyasida chiziqli-shtabli tuzilmasini izohlab bering.



Boshqaruvning klassik nazariyasida chiziqli-shtabli tuzilma

7. Boshqaruvning klassik nazariyasida yassi tashkiliy tuzilmasini izohlang.



Testlarni yeching:

1. Mulk qiymatini baholashga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
 - a. Tashqi omillar;
 - b. Ichki fundamental omillar;
 - c. Maxsus omillar;
 - d. Barcha javob to'g'ri
2. Qiymat turlari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?
 - a. Bozor va kadastr qiymati;
 - b. Tugatish qiymati;
 - c. Investitsion qiymat;
 - d. Barcha javob to'g'ri
3. Kadastr qiymat qanday maqsadlar uchun aniqlanadi?
 - a. Soliqqa tortish maqsadida;
 - b. Yerni o'lchash maqsadida;
 - c. Yerni taqsimlash maqsadida
4. Baholash faoliyati to'g'risidagi qonunga nechanchi yili o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan?
 - a. 2009 yil
 - b. 2008 yil
 - c. 2007 yil

5. Quyidagilardan qaysi biri baholash obyektlari jumlasiga kiritiladi?

a. Mol-mulkka yoki mol-mulk tarkibidagi ayrim ashyolarga bo'lgan huquq;

b. Intellektual mulk

c. Muayyan turdagi mol-mulk

d. Barcha javob to'g'ri

6. Baholash obyekti boyicha baholash o'tkazish uchun nimalar asos bo'la oladi?

a. Baholovchi va buyurtmachi o'rtasidagi shartnoma

b. Sud ajrimi;

c. A va B javoblar to'g'ri;

d. Bir tomonning roziligi asosida

7. Quyidagilardan qaysi biri baholovchi tashkilot majburiyatlariga kiradi?

a. Baholovchilarning har yili malaka oshirish kurslarida belgilangan tartibda o'qishni ta'minlash;

b. Baholash obyektni baholashdan o'tkazish davomida olinadigan hujjatlarning but saqlanishini ta'minlash;

c. Baholash to'g'risidagi hisobotning nusxasi 3 yil mobaynida saqlanishini ta'minlash;

d. Barcha javob to'g'ri

8. 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikamizda qancha baholovchi tashkilot faoliyat yuritgan?

a. 58 ta;

b. 55 ta;

c. 122 ta

9. Obyektni daromadli yondashish usuli bilan baholaganda ...

a. yillik tushumdan barcha xarajatlar olib tashlanib sof foyda orqali hisoblanadi;

b. yillik tushumdan faqat kommunal xarajatlari olib tashlanadi;

c. umumiy yillik tushum bo'yicha hisoblanadi

10. Daromadli yondashish usuli bilan baholaganda qaysi muddatda olingan daromaddan foydalaniladi?

- a. yillik daromad;
- b. 6 oylik daromad;
- c. kvartal daromadi

8-MAVZU. MULK QIYMATI VA NARXINING SHARTLI VIRTUAL SHAKLDAGI INDIKATIV BOZORI

Mulk qiymati va narxining hamda ular shakllanuvchi bozorlarning ekvivalentligi va bog'liqligi; mulk qiymati va narxini regulyativ bog'liqlikda shakllantiruvchi umumlashgan bozor va uning muhiti; qiymat va narxni ekvivalent shakllanishini ta'minlovchi umumlashgan bozor va real iqtisodiyotning regulyativ bog'liqlikdagi faoliyatini ifodalovchi tuzilmaviy model; makroregulyator kontseptsiyasi.

Topshiriqlar


Muhokama uchun savollar:

1. MQBXB va MB ekvivalentligi deganda nimani tushunasiz.
2. MQBXB qiymatlari MB narxlariga va aksincha narxlarni qiymatlarga transformatsiyalanishi qanday amalga oshadi.
3. MB va MQBXB hajmlari dinamik o'zgarishi tendensiyalarining o'zaro sinxronligi nimani bildiradi.
4. Mulkning qiymati va narxi ekvivalentligini ta'minlashda davlatning regulyativ aralashuvi nima uchun zarur.
5. MB va MQBXB ekvivalentligini buzilishi qanday holatlarda namoyon bo'ladi.
6. MQNB deganda nimani tushunasiz.
7. MQNBdagi (V-P) muhit deganda nimani tushunasiz.
8. MQNBdagi (V-P) muhitining quvvati nimadan iborat.


9. MQNBdagi (V-P) muhitining samaradorligi qanday mezon asosida baholanadi.

10. Nima uchun milliy MQNB (V-P) muhiti tarmoqlar va hududlar MQNB muhiti yig'indisi emas.


2. Umumiy regulyator UM (MR) orqali mulk qiymati baholash xizmatlari bozori MQBXXB va mulk bozori MB bog'liqligi asosida ular ekvivalentligini ta'minlashning tuzilmaviy modelini tushuntiring.




3. Omillar ta'siridagi mulk qiymati baholash xizmatlari bozori MQNBdagi (V-P)-muhit sxemasini tushuntiring.



4. Mulk qiymati baholash xizmatlari bozori MQNB (V-P)-muhitining regulyativ sxemasini tushuntiring.



6. MRI va MQNBni umumiy makroregulyator (MR) orqali o'zaro bog'liqlikda faoliyat ko'rsatishining tuzilmaviy modelini tushuntiring.



Testlarni yeching:

1. Makroregulyativ tizim o'z ichiga qanday institutlarini oladi?
 - a. Davlat va nodavlat regulyativ institutlarini oladi
 - b. Iqtisodiy va ijtimoiy regulyativ institutlarini oladi
 - c. Huquqiy va iqtisodiy regulyativ institutlarini oladi
2. "MQBXB-MB" juftligi qanday funktsiyani bajaradi?

a. narxlar yordamida mulkni ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlar vositasi, kapital va tovar sifatidagi bozor muomalasini amalga oshirish funksiyasini bajaradi

b. qiymat va narxlar yordamida mulkni ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlar vositasi, kapital va tovar sifatidagi bozor muomalasini amalga oshirish funksiyasini bajaradi

c. qiymat yordamida mulkni ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-informatsion munosabatlar vositasi, kapital va tovar sifatidagi bozor muomalasini amalga oshirish funksiyasini bajaradi

3. MQNBdagi (V-P)-muhit deganda nimani tushunasiz?

a. MBda narxlar shakllanishi muhiti va MQBXBda qiymatlar shakllanishining shartli integratsiyalashgan tabiiy muhiti.

b. MBda narxlar shakllanishi muhiti va MQBda qiymatlar shakllanishining shartli integratsiyalashgan virtual muhiti.

c. MBda narxlar shakllanishi muhiti va MQBXBda qiymatlar shakllanishining shartli integratsiyalashgan virtual muhiti.

4. MQNB (V-P)-muhitining risklari deganda nimani tushunasiz?

a. mulkiy munosabatlar jarayonida real mavjud bo'lgan noaniq va tasodifiy xollarning vujudga kelishi ehtimolini sifatiiy-miqdoriy usullar yordamida ifodalab baholash shakli

b. mulkiy munosabatlar jarayonida real mavjud bo'lgan noaniq va tasodifiy xollarning vujudga kelishi ehtimolini sifatiiy-miqdoriy usullar yordamida ifodalab baholash shakli

c. MBda narxlar shakllanishi muhiti va MQBXBda qiymatlar shakllanishining shartli integratsiyalashgan virtual muhiti

5. Makroregulyativ model qanday tamoyillarga asoslanadi?

a. MQNBning barcha bo'g'inlarini tizimli tartiblashtirish va strategik rivojlantirish vazifasini bajarish asosida mamlakatda makroiqtisodiy mutanosiblilik va barqaror iqtisodiy o'sishni

- b. barqaror iqtisodiy o'sishniMQNBning barcha bo'g'inlarini tizimli tartiblashtirish va strategik rivojlantirish vazifasini bajarish asosida mamlakatda makroiqtisodiy mutanosiblik va barqaror iqtisodiy o'sishniMQNBning barcha bo'g'inlarini tizimli tartiblashtirish va strategik rivojlantirish vazifasini bajarish asosida mamlakatda makroiqtisodiy mutanosiblik va barqaror iqtisodiy o'sishni
- c. MBda narxlar shakllanishi muhiti va MQBXBda qiymatlar shakllanishining shartli integratsiyalashgan virtual muhiti.

9-MAVZU. IJTIMOIIY-IQTISODIY SISTEMOLOGIIYAGA ASOSLANGAN ZAMONAVIIY MULK TO'G'RISIDAGI MULTIFAN VA ADOLATLI QIYMAT KONTSEPTSIYASI ASOSLARI

Mulk (mulkiy huquq), uning qiymati, narxi, qimmati va ularni boshqarish bilan bog'liq intellektual ishlanmalarni garmonizatsiya qilish bo'yicha tizimli qarash; mulk va uning adolatli qiymatini yangicha talqini, uni baholash va boshqarish kontsepsiyasi; mulk bozorlaridagi real aktivlar bo'yicha "puffaklar" fenomeni va uni bartaraf etish masalalari; ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga asoslangan mulk to'g'risidagi multifan kontsepsiyasi; qiymat va narxlarni baholash va boshqarishda ixtisoslashgan tizimli-metrik tahlilning (ekonometrika, finansometrika, sekyurimetrika, marketmetrika, sotsiometrika, kvalimetriya, Lawmetrics) qo'llanilishi.


Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:


1. Ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaning zarurligi nimalar bilan asoslanadi.
2. Tizimli va kompleks yondashuv nima uchun bog'liq tushunchalar.
3. Tizimli tahlil deganda nimani tushunasiz.
4. Tizimli masalalarga qanday masalalar kiradi.
5. Ijtimoiy-iqtisodiy-informatsion-huquqiy tizim qanday tuzilgan.
6. Iqtisodiy quyi tizim deganda nimani tushunasiz.
7. Huquqiy quyi tizim deganda nimani tushunasiz.

8. Mulk to'g'risidagi multifan nima uchun zarur.
9. Mulk to'g'risidagi multifan qanday nazariyalarga tayanadi.
10. 2 D-3D formatdagi geometric iqtisodiy modellar nima uchun kerak.

2. Natijaviy Z vektorlarini 2D-formatda geometrik talqin qilish modelini tushuntirib bering.



3. Mulk miqdori, narxi va qiymatini ekvivalent bog'liqlikda tahlil qilishning 3D-formatdagi geometric iqtisodiy modelini tushuntiring.



Testlarni yeching:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya bu:

a. Ijtimoiy-iqtisodiy-huquqiy-information tizimni komplekslik va tizimlilik prinsiplari asosida tadqiq qiluvchi multifan

b. Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va information munosabatlar muhiti rivojini shakllantiruvchi katta murakkab regulyativ adaptatsiyalanuvchi (omillar ta'sitiga) dinamik tizimni o'rganuvchi fan

c. Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlar tizimini katta murakkab regulyativ adaptatsiyalanuvchi (omillar ta'sitiga) dinamik tizim sifatida o'rganuvchi fan

2. Multifan bu:

a. Turli fanlar doirasida olingan intellektual ishlanmalar garmonizatsiyasiga asoslanib shakllantirilgan integratsiyalangan fan

b. Konkret tadqiqot ob'ektini tizimli o'rganish maqsadida turli fanlar doirasida olingan intellectual ishlanmalar garmonizatsiyasiga asoslanib shakllantirilgan integratsiyalangan fan

c. Turli fanlar garmonizatsiyasiga asoslanib shakllantirilgan integratsiyalangan fan

3. Zamonaviy mulk to'g'risidagi multifan qaysi g'oyaga asoslanadi?

a. "Ko'char mulk, uning mulkdori va fantomlari" triadasini

b. "Ko'chmas mulk, uning mulkdori va fantomlari" triadasini g'oyasiga

c. "Mulk, uning mulkdori va fantomlari" triadasini g'oyasiga

4. 2D- va 2D-formatdagi geometrik modellarda adolatli qiymat qanday burchak ostida joylashgan vektor bilan ifodalanadi?

a. 450 ostida joylashgan vektor bilan

b. 22,50 ostida joylashgan vektor bilan

c. 67,50 ostida joylashgan vektor bilan

5. Zamonaviy mulk to'g'risidagi multifanning qaysi funktsiyasini bilasiz?

a. O'rganish, bilish, talqin qilish, prognostik va amaliy

- b. O'rganish, prognostik va regulyativ
- c. Bilish, prognostik va amaliy


10-MAVZU. MULK ADOLATLI QIYMATINI BAHOLASH VA BOSHQARISHNING METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARI

2D va 3D formatlardagi geometrik iqtisodiy modellar; Adolatli qiymat - investitsion va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning integrallashgan mezon sifatida; Adolatli qiymat kontseptsiyasini baholash faoliyatida qo'llanilishi; Adolatli qiymat kontseptsiyasini rieltorlik faoliyatida qo'llanilishi; Kompaniya adolatli qiymati o'sishiga qaratilgan boshqarish kontseptsiyasi.


Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:

1. Integrallashgan mezon deganda nimani tushunasiz.
 2. Baholash va rieltorlik faoliyati deganda nimani tushunasiz.
 3. Nima uchun mulkning qiymati va obyektiv bozor narxini bog'liqlikda ko'rish zarur.
 4. Kompaniya adolatli qiymatini o'sishi deganda nimani tushunasiz.
 5. Kompaniya aktivlari va passivlarini boshqarish deganda nimani tushunasiz.
 6. Kompaniyani umumiy moliyaviy boshqarilishi deganda nimani tushunasiz.
2. Boshqaruvchining adolatli qiymat (AQ) bahosiga bog'liqlikda boshqaruv va investitsion qarorlar qabul qilish jarayonining regulyativ sxematik modelini tushuntiring.



3. Kompaniya aktivlari va passivlarini bosh menejer boshchiligida o'zaro bog'liqlikda kompleks boshqarish modelini tushuntiring



Testlarni yeching:

1. Kompaniya adolatli qiymatni kompleks boshqarish o'z ichiga.....

a. Aktivlar va passivlar adolatli qiymatini babolab, kompleks-balanslashtirib boshqarishni oladi

b. Aktivlar adolatli qiymatini babolab boshqarishni oladi

c. Passivlar adolatli qiymatini babolab boshqarishni oladi

2. Qiymatni boshqarishning qanday konsepsiyalarini bilasiz?

a. an'anaviy (klassik), bixevioristlik (neoklassik) va zamonaviy tizimli yondashuv nazariyalari

b. Ijtimoiy va iqtisodiy

c. talab va taklif, o'rin bosish va jamg'arish

3. Adolatli qiymat qaysi ko'rsatkichlarga bog'liq?

a. davlat va yuridik shaxslarda

b. Real qiymat va obyektiv narxga

c. foizlar yoki birliklarda aks etuvchi ba'zi narx elementlarning nisbatidan iborat

b. mulk keltirishga qodir bo'lgan daromadning sifati va miqdori joriy bahosiga

4. Rieltorlik faoliyati – bu...

a. yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulk ob'ektlariga va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog'liq xizmatlarni shartnoma asosida ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatidir

b. baholash ob'ekti qiymatini aniqlashga qaratilgan faoliyatidir

c. tadbirkorlik faoliyati

5. Kompaniya aktivlari va passivlarini qanday boshqariladi?

a. Teknik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning asta-sekin pasayishi

b. Kompleks va transparent

c. Ijtimoiy va iqtisodiy

11-MAVZU. O'ZBEKISTONDA MULK QIYMATI BAHOSI VA NARXI SHAKLLANISHINING SHAROITLARI VA XUSUSIYATLARI

O'zbekistonda mulk qiymatini baholashning institutsional, metodologik va regulyativ asoslari; O'zbekistonda mulk bozori barqaror narxlarini shakllantirishning institutsional va regulyativ asoslari; O'zbekistonda mulk bozori va mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorining o'zaro va makroiqtisodiy siyosatga bog'liqligi.

Topshiriqlar

Muhokama uchun savollar:

1. O'zbekistonda qanday mulkchilik shakllari qabul qilingan.

2. O'zbekistonda mulkchilik tizimi qanday shakllangan.

3. O'zbekistonda mulk bozori qanday shakllangan.

4. O'zbekistonda mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori qanday shakllangan.

5. O'zbekistonda MBning makroiqtisodiy siyosatiga qanchalik bog'liq.

6. O'zbekistonda mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorining makroiqtisodiy siyosatiga qanchalik bog'liq.

7. O'zbekistonda MB va MQBXB o'zaro qanchalik bog'liq.

8. O'zbekistonda MB rivojlanishida qanday muammolarni bilasiz.
9. O'zbekistonda MQBXB rivojlanishida qanday muammolarni bilasiz.
10. O'zbekistonda gipotetik MQNB rivojlanish sifatini qanday baholaysiz.

Testlarni yeching:

1. O'zbekistonda qanday mulkchilik shakllari qabul qilingan?
 - a. shaxsiy, xususiy, davlat, munitsipal, tijoratiy-jamoa, ijtimoiy-jamoa
 - b. xususiy, davlat
 - c. tijoratiy-jamoa, ijtimoiy-jamoa
2. O'zbekistonda mulk bozori makroiqtisodiy siyosatga qay darajada bog'liq?
 - a. bog'liqlik darajasini ifodalovchi R^2 koeffitsienti 0,73
 - b. Foizlar yoki birliklarda aks etuvchi ba'zi narx elementlarning nisbatidan iborat
 - c. makroiqtisodiy siyosatga bog'liq emas
3. Mulkning real qiymati va ob'ektiv narxining o'zaro bog'liqlikda qanday modellarda ko'rish mumkin?
 - a. Ijtimoiy va iqtisodiy
 - b. Geometrik 2D va 3D modellarda
 - c. Geometrik 2D model
4. O'zbekistonda mulkning ko'p qismi qaysi institutlarda jamlangan?
 - a. davlat va yuridik shaxslarda
 - b. norezidentlarda
 - c. fuqaroligi bo'lmagan shaxslarda
5. Baholash tashkiloti nimani baholaydi?
 - a. Qiymatni
 - b. Narxni
 - c. Teknik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni

ASOSIY ATAMALAR LUG'ATI

Mulk- qiymat, narx, qimmat, naf, foydalilik, farovonlik, manfaat va daromad kabi iqtisodiy kategoriyalar manbasi, fuqarolik huquqlari subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish motivi, omili sifatidagi ne'mat (boylik).

Mulkiy huquq- ne'matlarning mavjudligi va ularni ishlatish bilan bog'liq odamlar orasidagi sanksiyalangan munosabatlar.

Mulkiy huquq subyektlari- davlat, yuridik va jismoniy shahslarning obyektiv huquq normalari asosida yuzaga keladigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlari majmuasi.

Mulkiy huquq obyektlari- tabiat va jamiyat boyliklarini ijtimoiy-iqtisodiy o'zlashtirishni tartibga solish bilan bog'liq huquq normalari yig'indisi.

Mulkchilik tizimi - jamiyatda o'rnatilgan mulkchilik shakllariga mos instrumental, institutsional va funktsional tuzilmalarni va ular bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy-informatsion-huquqiy munosabatlar mexanizmini birlashtiruvchi yaxlit tizimli majmua.

Mulkiy munosabatlar- turli mulkchilik shakllariga asoslangan mulkichilik tizimida mulkiy huquq sub'yektlari tomonidan amalga oshiriluvchi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, informatsion aloqa(munosabat)lar majmuasi.

Verbal tasniflash- mulkni qonuniy-me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tasniflash.

Jadval tasniflash- mulkni jadval asosida tasniflash.

Sxematik tasniflash- mulkni sxematik tarzda tasniflash.

Qiymat- mulkning pul birligi miqdoridagi ekvivalenti

Narx- avvalgi vaqt davrlarida FHO yoki unga o'xshash obyektlarni sotib olish uchun tuzilib amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha qancha mablag' sarflanganligini ifodalovchi tarixiy fakt.

Puffak- mulkning qiymati va narxi o'rtasidagi ekvivalentlilik buzilishi hollari

Baholash- narxni aniqlash (baholash), qiymatni belgilash (baholash), naflik va qimmatlilik darajasiga baho berish, miqdorni baholash, nimanidir sifati yoki qimmatlili to'g'risida xulosa chiqarish jarayoni.

Boshlang'ich narx- sarfqiymat, to'langan soliqlar va rejalashtirilgan foyda miqdorlarining jami summasidan tarkib topuvchi qiymat sifatida baholanib, bozor sotuviga dastlabki tarzda taklif etiladigan sotuvchi narxi.

Bozor qiymati—raqobatli bozorning konkret sharoitlarida (uning balanslashgan kon'yunkturasini hisobga olgan holda) baholash ob'yektini adolat, halollik va axborot shaffofligi asosida yangi mulkdorga berilishi uchun to'lanishi ehtimol darajasi eng yuqori bo'lgan pul summasi.

Mulk qiymati-mulkning ma'lum vaqt davridagi pul ekvivalentida ifodalangan va bozor narxiga ekvivalentlik darajasi yaqin bo'lgan qiymatining MQBXB tendentsiyasiga bog'liq ekspert bahosi bo'lib, uning miqdori konkret baholash maqsadlari va metodologiyasi asosida professional baholovchining adolat nuqtai nazaridan pragmatik hisob-kitoblarga asoslangan fikri.

Mulk narxi-mulk bozorining ma'lum vaqt davridagi talab va taklifi (obyektiv konyunkturasi) asosida sodir etilgan bitim shartlarini aks ettiruvchi mulk va uni bozorga chiqaruvchisi bozor qiymatiga maksimal ekvivalent bo'lgan pul birligida to'langan yoki unga mos nisbiy miqdor.

Bozor-ma'lum xajm, qimmat, qimmat va narxga ega bo'lgan tovarning erkin savdosi bilan bog'liq tashkillashgan ijtimoiy-iqtisodiy-informatsion-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni turli omillar ta'siri sharoitida maqsadli amalga oshirilishini ta'minlovchi yaxlit murakkab tizim (mexanizm) sifatida namoyon bo'luvchi tovar bo'yicha talab va taklif funktsiyasi.

Mulk bozori-bu tovarlar sifatida qabul qilingan FHolar bo'yicha obyektiv talab va ob'yektiv taklif funktsiyasi sifatidan namoyon bo'luvchi murakkab tizim (mexanizm) bo'lib, u sotuvchi va haridor o'rtasida kechadigan “pul(haridor) - tovar(sotuvchi) - (haridor va sotuvchi manfaatlarini ularning bozorda o'zaro shartnomaviy kelishilgan natijaviy kopromiss narx asosida personal (shaxsan)

qondiruvchi har ikkala tarafning olgan foydasi (yoki ulardan birining ko'rgan zarari)”) sxemasi mazmunida ifodalanuvchi almashinuv jarayoni.

Bozor infratuzilmasi - tovarlarning erkin (ochiq) muomalasi va resurslarning samarali aylanmasi bilan bog'liq iqtisodiyotning alohida mexanizmi bo'lib, bir-biri bilan o'zviy bog'liq o'ziga xos xususiyat va xossalarga ega unsurlardan iborat tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan murakkab tizim.

Tizimli yondashuv-ilmiy bilim olish va amaliy faoliyat metodologiyasining shunday yo'nalishiki, uning asosida har qanday ob'yektni murakkab to'laqonli, masalan, texnik, biologik, ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va h.k. tizim sifatida tadqiq etish.

Tizimli tadqiqot - tadqiq qilinayotgan ob'yektni o'rganish, uni sifatiiy va miqdoriy baholash asosida kompleks ravishda keng va chuqur tushunish, undagi xossa va qonuniyatlar, munosabatlar, omillarning o'zaro bog'liqlikdagi ta'sirini aniqlash.

Tizimli masalalar-tadqiqot ob'yekti bo'lmish MBning tizimli tahlili, prognozi va sintezi asosida mazkur ob'yektning barqarorligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligi nuqtai nazardan tendentsiyalari tahlili, holatiga baho berish, undagi jarayon va munosabatlarni modellashtirish, optimallashtirish va prognozashtirish, optimal regulativ (umumiy holda boshqaruv) va rivojlantirish strategiyalari hamda institutsional, funktsional va instrumental tuzilmalari faoliyati va shu kabi boshqalar bilan bog'liq savollarga javob topish.

Funksional tahlil uslubi- MB va uning tarkibiy qismlari funktsiyalarini tizimli tahlil qilish tamoyil va usullari yig'indisi.

Baholash- narxni aniqlash (baholash), qiymatni belgilash (baholash), naflik va qimmatlilik darajasiga baho berish, miqdorni baholash, nimanidir sifati yoki qimmatliliigi to'g'risida xulosa chiqarish jarayoni.

Mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori- mulkdorlarning mulkiy huquqlari qiymatini belgilaydi va boshqarilishiga yordamlashadi, mulk bozori ob'yektiv narxlarini va mulkdorlar jamg'armalari real qiymatini shakllanadigan bozor.

Bozor qiymati - raqobatli bozorning konkret sharoitlarida (uning balanslashgan kon'yunkturasini hisobga olgan holda) baholash obyektni adolat, halollik va axborot shaffofligi asosida yangi mulkdorga berilishi uchun to'lanishi ehtimol darajasi eng yuqori bo'lgan pul summasi.

Mulk qiymati - mulkning ma'lum vaqt davridagi pul ekvivalentida ifodalangan va bozor narxiga ekvivalentlik darajasi yaqin bo'lgan qiymatining MQBXX tendentsiyasiga bog'liq ekspert bahosi bo'lib, uning miqdori konkret baholash maqsadlari va metodologiyasi asosida professional baholovchining adolat nuqtai nazaridan pragmatik hisob-kitoblarga asoslangan fikri.

Baho- mulk (tovar) nafililigi va foydaliligining pulda yoki nisbiy birlikda mezonlar yordamida baholanib ifodalangan ekspert xulosasi

Adolatli qiymat - MQBXX qiymati va MB ob'yektiv narxi asosida bir necha xolis baholovchi tomonidan plyuralizm asosida ekspert baholanib va baholashdan manfaatdor taraflar tomonidan kollegial ravishda adolat nuqtai nazaridan joriy bozor narxiga ekvivalent deb qabul qilingan xulosaviy natija

Obyektiv narx - aksiyalar bozorida hech kimda hech qanday gumon hosil qilmaydigan davomiy va barqaror kotirovkalar bo'yicha obyektiv talab va obyektiv taklif asosida erkin (ochiq, shaffof) shakllanadigan aktsiyalar narxi.

AMALIY MASHG'ULOTNI BAJARISHDA TALABALAR UCHUN TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Shoha'zamiy. Sh.Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Tanlangan ma'ruzalar to'plami. T.; Iqtisod-moliya. 2015. 450 bet.

2. Shoha'zamiy. Sh.Sh. Mulk nazariyasi, qiymat va narxi. – T.; Fan va texnologiya. 2012. – 264 bet.

3. Shoha'zamiy. Sh.Sh. Bozor asoslari. – T.; Fan va texnologiya. 2012. – 212 bet.

4. Шоҳаъзамий Ш.Ш. Трактат о собственности и её справедливой стоимости. -Т.; Iqtisod-moliya. 2014.-504 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996-yil. 257-I-sonli qaroriga muvofiq 1997-yilning 1-martidan kuchga kiritilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining “Mulk to'g'risida”gi Qonuni. 1990-yil 31-oktyabr.

3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi Qonuni. 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan.

4. O'zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. 1999-yil 19 avgustda qabul qilingan.

5. O'zbekiston Respublikasining Mulkni baholash milliy standartlari (MBMS № 1-13).

6. Mulkni baholashning xalqaro standartlari .

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Fanning maqsad va vazifalari.....	4
Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar.....	5
Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi.....	7
Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni.....	7
Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.....	8
Amaliy mashg'ulotning tashkiliy shakllari hamda axborot ta'minoti.....	8
Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini nazorat qilish va baholash.....	10
Amaliy mashg'ulot topshiriqlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar.....	11
Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti.....	13
“Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari” fanining har bir mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot topshiriqlari.....	14
1-mavzu. Mulk va mulkiy huquq tushunchalari, ularga oid nazariy qarash va bilimlar tizimi.....	14
2-mavzu. Mulkni tasniflash va tavsiflash.....	18
3-mavzu. Mulkning qiymati, narxi, qimmatliligi va ularni baholashga oid nazariy qarashlar.....	23
4-mavzu. Mulk (mulkiy huquqlar) bozorining nazariy asoslari.....	28
5-mavzu. Mulk bozori narxlari va ularni tahlil qilish asoslari.....	32
6-mavzu. Mulk (mulkiy huquq) qiymatini baholash xizmatlari bozori.....	36
7-mavzu. Mulk (mulkiy huquq) qiymatini baholash va boshqarishning nazariy va metodologik asoslari.....	40
8-mavzu. Mulk qiymati va narxining shartli virtual shakldagi indikativ bozori.....	45
9-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiyaga asoslangan zamonaviy mulk to'g'risidagi multifan va adolatli qiymat kontseptsiyasi asoslari.....	49
10-mavzu. Mulk adolatli qiymatini baholash va boshqarishning metodologik va amaliy asoslari.....	52
11-mavzu. O'zbekistonda mulk qiymati bahosi va narxi shakllanishining sharoitlari va xususiyatlari.....	54
Asosiy atamalar lug'ati.....	56
Amaliy mashg'ulotni bajarishda talabalar uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.....	59